

HAQIRIY DEVONIDAGI SHE'RLARNING G'OYAVIY BADIY XUSUSIYATI, SHE'RLARDA QUR'ONI KARIMDAN ISHORALAR

Ahadov Inomjon Jamoliddinovich

Imom Buxoriy nomidagi

Toshkent Islom instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti hamda devonchilik an'analar, xususan Devoni Haqiriylar haqida fikr yuritiladi. Devoni Haqiriylar she'rlarda Qur'on Karim oyatlariga ishoralar, ularning badiiy mazmuni ochib beriladi. maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad Muhammad Sharif Haqiriyning shaxsi, hayoti, faoliyati hamda adabiy merosini istiqlol mafkurasi va adabiyotshunoslikda qaror topgan yangicha qarashlar asosida badiiy hamda matniy tadqiq etish va uning shoir sifatidagi badiiy mahoratini ochib berishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Haqiriylar, "Devoni Haqiriylar", iqtibos, aqd, Hamd, na't va munajjotlar Qur'on Karim, Hadis, g'azal, takror g'azallar.

Haqiriylar g'azallarida sharq she'riyatining o'lmas insoniy g'oyalari, e兹gulik va yomonlik, ma'rifat va johillik, olam va odam kabi mavzular yetakchilik qiladi. Ishq-muhabbat g'oyasi shoir g'azallarining asosiy mazmun mohiyatini tashkil etadi. Shoirlar lirikasini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Oshiqona va orifona she'rlar. 2. Hamd, na't va munajjotlar. 3. Axloqiy-ma'rifiy mavzudagi she'rlar. 4. Realistik she'rlar.

Ishq mavzusi Haqiriylar ijodida ham asosiy o'rinni egallaydi. Zero, A.Hayitmetov aytganidek, "Garchi Sharq poeziyasi tarixida biz satirik, falsafiy, avtobiografik g'azallarni, tabiat, may haqidagi g'azallarni uchratsak ham, lekin g'azalning asosiy spetsifik mavzui ishqadir. Buni faqat g'azal nazariyachilarining fikrigina emas, balki shu narsaning necha yuz yillik taraqqiyot tajribasi ham ko'rsatib turadi"¹. Haqiriylar ijodida ham ishq va muhabbat ideal darajaga ko'tarilgan tuyg'u sifatida talqin etilgan. Shoirlar ma'shuqa, uning muhabbatiyu husni jamoli va lirik qahramon-oshiq ahvoldidan so'z yuritib, ular orqali dunyoviy va ilohiy g'oyalarni ilgari suradi. Bu g'oyalalar shoirlar ko'zlagan mehr-vafo, insoniylik, yaxshi axloqni ifodalasa, ikkinchi tomondan, ilohiy muhabbat, irfoniy taxayyul kabi tushunchalar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab olgan.

¹ Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: ЎзР ФА нашриёти, 1961. – Б.56.

Shuni alohida qayd etish kerakki, shoirning lirik qahramoni oshiqlik bilan oriflik o'rtasiga qat'iy bir chegara qo'ymaydi. Shoirning lirik "men"i iloh va inson kuychisi sifatida uning ko'plab g'azallarida namoyon bo'ladi. Oshiqona va orifona lirkada Haqiriyl mavzular ko'lami, g'oyaviy yo'naliishi va badiiy tasvir borasida Alisher Navoiy, Munis va Ogahiiyning sodiq izdoshi. U ham salaflari qatori ishq vositasida teran mushohadalarni ifodalaydi. Shu ma'noda u majozni haqiqatga vosita deb biladi.

Shoir lirikasida g'oyaviylik uning badiiy ko'lami shoirning ijtimoiy muhit ta'sirida yozilgan. Haqiriyl devoni hamd, na't, musaddas, muxammas, ruboiy va munojot kabi janrlarga boy bo'lib, XX asr turkiy she'riyatida munosib o'rinni egallagan. U, avvalo, zabardast lirik shoirdir. Yuzlab mazmundor g'azallar yozgan, devon tuzgan, turkiy she'rning buyuk Navoiydan keyin qadr-u e'tiborini yuksak sharaf va mas'uliyat bilan himoya eta olgan shoirdir. O'z navbatida forsiyda ham ijod qilib, o'zgacha mahoratini namoyon qilgan.

Haqiriyl boy adabiy an'anaga ega bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotning Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Ogahiy, Munis ijodini mehr bilan o'qib o'rganib, ularning mahorat sirlaridan bahramand bo'lgan. Shoir ijodiga, ayniqsa, Lutfiy bilan Navoiy kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Shoir lirikaning xilma-xil janrlarida barakali ijod etdi. Uning devonidan g'azal, muxammas, musaddas, munojot, qasida, qit'a va ruboiy janridagi she'rlar o'rinni olgan. Haqiriyl ko'plab sharq she'riyati ijodkorlari singari g'azalga alohida ixlos va muhabbat bilan qaradi, uni iste'dodga me'zon bildi. Haqiriyl g'azal janrini kamolotga yetkazgan buyuk san'atkordir. Navoiyni o'ziga ustoz bilib eng go'zal, eng nafis va eng ohangdor g'azallar yaratgan shoirdir. Haqiriyl - turkiy tillarda so'zlashuvchi barcha xalqlarning mushtarak sharafi, ularning mushtarak ijodkoridir.

Haqiriyl o'z ijodining ibtidosidan boshlab, g'azal janriga alohida ahamiyat beradi, bu janrni boshqalardan yuqori qo'yadi. G'azallarida Qur'onidan Karim va Hadisi sharifdan iqtiboslar keltirgan, Nabiy Alayhissalomga tegishli bo'lgan go'zal xulqni o'zining g'azalida ifoda etgan:

ای حسن جمالنگ غا خلائق همه حیران
قد خص لك الحسن لك الخلق والاحسان

Ey husnu jamolingg'a xaloyiq hama hayron,
Qod xusso lakal husnu lakal xulqu val ehson.

Shoir ushbu baytda ikki olam sarvari Muhammad salollohu alayhi vasallamning suratlarini va husn-u xulqlarini maqtov bilan keltirgan. Bu esa Haqiriyning Payg'ambarimizga nisbatan muhabbatini va intiqligini izhor etadi. Shuningdek, Alloh shoir insoniyat ichida faqat Rasuli akram alayhissalomni xalqiy va xulqiy go'zalliklar

bilan xoslaganini aytadi. Bunga dalil qilib Qur’oni karim va hadisi sharifdan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam juda novcha ham, pakana ham, o’ta oppoq ham, bug‘doyrang ham emas edilar. (Sochlari) juda jingalak ham, o’ta silliq ham emasdi. Qirq yoshga yetganlarida Alloh taolo u zotni payg‘ambar qilib yubordi. Keyin Makkada o’n yil, Madinada o’n yil turdilar. Alloh taolo u zotni oltmis yoshlari avvalida vafot ettirdi. O‘shanda soch-soqollarida yigirmata ham oq tola yo‘q edi”¹.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam insonlarning nafaqat xalqiy jihatdan balki, eng go‘zal xulqlisi ham edilar. Bu haqda Alloh taolo u zotni madh etib, bunday marhamat qilgan:

وَإِنَّكَ لَعَلَىٰ خُلُقٍ عَظِيمٍ

“Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!”² (Qalam surasi, 4-oyat).

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam doimo Alloh taolodan go‘zal odob va xulqlar bilan ziynatlashini so‘rab duolarida: “Allohim! Mening xulqimni va xalqimni go‘zal qilgin”³, der edilar. Shuningdek, yomon xulqlardan Allohdan panoh so‘rab: “Allohim! Meni inkor qilingan axloqlardan chetda qilgin”, deb duo qilardilar.

خلق ايلادي عالمي خدايم شرفند بىن

لو لاك لما كانت الاكون و الاzman

Xalq ayladi olamni Xudoyim sharafigingdin,

Lav la ka lama kanat al akvonu val azmon.⁴

Shoir yana Rosululloh sollallohu alayhi va sallamning madhlarida davom etib, Alloh taolo butun zamon va makonlarni o‘zining so‘nggi rosulining sharafidan bunyod etganini ta’kidlaydi. Agar Muhammad sollallohu alayhi va sallam bo‘lmaganida hech bir narsa bo‘lmasligini aytadi. Shoir bu so‘zi bilan quyidagi qudsiy hadisga ishora qiladi.

لو لاك لما خافت الافلاك

“ (Ey payg‘ambarim), agar siz bo‘lmaganinggizda men butun koinotni yaratmagan bo‘lar edim”⁵.

Bu hadisni hadis ilmi olimlari sahih ham zaif ham demaganlar. Shu bilan birga birorta sahabiy rivoyat qilgan ham deyishmagan.

اول كجه داکیم اویدی رکابنکنى ملایك

ما اعظم معراجنك يا سید انسان

¹ Muhammadsharif Haqiri. Devoni Haqiri. O‘z RFA Sh I. Inv 7096 46-bet.

² “Tafsiri hilol” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr 2017 y.

³ Husnu xulq fazilati. www.ziyouz.com kutubxonasi

⁴ Muhammadsharif Haqiri. Devoni Haqiri. O‘z RFA Sh I. Inv 7096 46-bet.

⁵ Husnu xulq fazilati. www.ziyouz.com kutubxonasi

Ul kechadakim uydi rikobingni maloik,
Mo a'zam me'rojing yo sayyidi inson.¹

Bu bayt Rosululloh sollollou alayhi vasallamning me'roj kechasida sodir bo'lган voqealariga ishoradir. Meroj kechasi insoniyat olamidagi eng katta mo"jiza sodir bo'lган kechadir. Bu kechada Jabroil farishta Buroq nomli ulovni Rosululloh Allohnинг huzuriga ko'tarilishlari uchun olib kelgan tundir. Shu kungacha na biror payg'ambar na boshqa mavjudot Rosululloh ko'tarilgan joygacha ko'tarila olgan edi. Shoirning bu misrasidan ma'lum bo'ladiki Haqiriyy arab tilini ham yaxshi o'zlashtirgan. Chunki ما اعظم feli ما فاعل vaznida bo'lib bu maqtov feli jumlasidan bo'lib buni ayni o'mida qo'llagan. Bu esa shoirning mohirligiga dalolat qiladi.

اقصادا سنكا تابع ايدي بارجه نبى لار
قد كنت اماما لهم اليلة عرجان

Aqsoda sanga tobe' edi barcha nabiyalar,
Qod kuntu imaman lahum laylata 'urjon.

Ushbu baytda Haqiriyy Rosululloh sollollohu alyhi vasallamning me'roj kechasida barcha payg'ambarlarga imom bo'lib namoz o'qiganlarini keltirmoqda. Bu voqeа Isro hodisasi ham deyiladi. Alloh taolo bu haqda Qur'oni karimda shunday so'zlaydi:

سُبْحَانَ الَّذِي أَسْرَى بِعَنْدِهِ لَيْلًا مِنَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ إِلَى الْمَسْجِدِ الْأَقْصَى الَّذِي بَارَكْنَا حَوْلَهُ لِنُرِيَهُ مِنْ آيَاتِنَا إِنَّهُ هُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ

O'z bandasini kechasi Masjidu Haromdan atrofini barkali qilganimiz Masjidul Aqsoga mo"jizalarimizni ko'rsatish uchun sayr qildirgan Zot pok bo'ldi. Albatta, U eshitguchi ko'rib turuchi Zotdir.² Isro surasi 1-oyat

عاصى جفا كار امملارك شفيع سين
طوبا لك يا ختم رسول مهبط فرقان

Osiy jafokor umamlarga shafi' sen,
Tuvbo laka yo xotami rusul mahbiti Furqon.

Ushbu baytda shoir Payg'ambarimizning gunohkor ummatlariga qiladigan shafoatlarini ifodalamoqda. Bu haqda imom Buxoriy hazratlari quyidagi hadisni rivoyat qilganlar:

حَدَّثَنَا عِمَرُ بْنُ حُصَيْنٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ يَخْرُجُ قَوْمٌ مِنَ النَّارِ بِشَفَاعَةِ مُحَمَّدٍ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَيَدْخُلُونَ الْجَنَّةَ يُسْمَوْنَ الْجَهَنَّمِيِّينَ

Bizlarga Imron ibn Husayn roziyallohu anhumo Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan eshitganini gapirib berdi: "Bir qavm Muhammad sollallohu alayhi vasallamning shafoatlari sababli do'zaxdan chiqib, jannatga kiradilar, "jahannamiylar" deb nomlanadilar". Buxoriy rivoyat qilgan.

¹ Muhammadsharif Haqiriyy. Devoni Haqiriyy. O'z RFA Sh I. Inv 7096 46-bet.

² "Tafsiri hilol" Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr 2017 y.

Imom Muslim Abu Said roziyallohudan qilgan rivoyatda: “Ular (ya’ni, jahannamiylar deb nom olganlar) Allohga duo qiladilar, Alloh ulardan ushbu ismni ketkazadi”¹, deyilgan.

So‘ngra baytda Rosulullohni maqtab Qur’oni karim o‘zlariga nozil bo‘lganini aytadilar. Rosulullohga nisbatan “Mahbit” sifatini qo‘llaydi. “Mahbit” so‘zi arab tilidagi so‘z bo‘lib, tushiladigan bir makin yoki joyga nisbatan ishlataladi. Shoir esa yer yuzida Qur’onni dastlab nozil bo‘lgan o‘rni Rosululloh sollollohu alyhi va sallam bo‘lganliklari sabab ushbu “Mahbit” so‘zini qo‘llagan. Qur’oni karim to‘laligicha dunyo osmoniga Qadr kechasida tushirilgan. Qur’on butunicha nozil qilingan joy, “Baytul-izzat” deb atalardi. Bu yerdan Jabroil alayhissalom uni Payg‘ambar sollollohu alayhi vasallamga navbati bilan paydar-pay 23 yil davomida keltirib turdilar. Buni Qur’oni karimning ushbu oyati tasdiqlaydi:

وَقُرْأَنًا فَرَقْنَاهُ لِتَقْرَأُهُ عَلَى النَّاسِ عَلَى مُكْثٍ وَنَزَّلْنَاهُ تَنْزِيلًا

“Qur’onni odamlarga bardosh bilan (asta) o‘qib berishingiz uchun uni bo‘laklarga bo‘ldik va bo‘lib- bo‘lib nozil qildik.”² Isro surasi 106 oyat.

Haqiri shu bilan birga Sarvari koinotga Tuvboni tilaydilar.

دھر ایجرا وجودینک بولوبان رحمت شامل

قد کان لنا شاهد فى ایت قران

Dahr ichra vujuding bo‘libon rahmati shomil,

Qod kana lana shohid fi oyati Qur’on³.

Shoir bu baytda Alloh taoloning bu so‘ziga ishora qilmoqda:

وَمَا أَرْسَلْنَاكَ إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ

(Ey, Muhammad,) biz sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz.⁴ (Anbiyo: 107).

وصفیناک غه حقیریغه تیل اجماقғه نی حد بار

نه کан مضى نعتنك نی النفس كما كان

Vasfingga Haqiriyg‘a til ochmoq ne had bor,

Na koni muziy na’ting ne anfusi kama kon.⁵

Shoirning ushbu g‘azali boshdan-oyoq ilohiy ishq va payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom haqidadir, lekin bu bilan shoirning butun lirik she’rlari shu mavzuda deyish bir tomonlamalikdir. U, yuqorida aytganimizdek, ilohiy va dunyoviy muhabbatni bab-baravar kuylagan shoirdir. Bu yerda mantiqsizlik yo‘q. Hamonki, u borliqni Allohnинг tazoxiri hisoblar ekan, bu falsafa insonni ham ilohiy bilar edi.

¹ www.qadriyat.uz

² “Tafsiri hilol” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr 2017 y.

³ Muhammadsharif Haqiriyy. Devoni Haqiriyy. O‘z RFA Sh I. Inv 7096 46-bet.

⁴ “Tafsiri hilol” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr 2017 y.

⁵ Muhammadsharif Haqiriyy. Devoni Haqiriyy. O‘z RFA Sh I. Inv 7096 46-bet.

Boshqacha aytganda, insonning dunyoviyligida ilohiylik bor edi. Shunga ko‘ra shoirning lirik she’rlarida ilohiy ishq bilan bir qatorda dunyoviy muhabbat tasviri degan masalani ham qo‘yish va o‘rganish mumkin.

Haqiriy g‘azallarini tadqiq qilish davomida unda she’riy san’atlardan unumli, mohirona foydalanganligini ko‘rish mumkin. Uning she’rlarida badiiy san’atning bir necha turlari qatnashgan, bu tadqiq davomida kuzatildi.

Zihi orazing vohki xurshidsan,

Ayon, ayon, ayon, ayon.

Topib man huzn hajring alamidin,

Omon, omon, omon, omon.¹

Mumtoz adabiyotda juda kam uchraydigan g‘azalning bu turi Haqiriy devonida mohirona yozilgan. Haqiriyning bu g‘azalida qofiyalanish jihatdan *a-a* qismi tushib qolib *b-a*, *d-a*, *e-a* shaklida davom ettirilgan, ikkinchi misradagi takrorlar g‘azal badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Qadding sarv la’ling asal qoshlaring,

Kamon, kamon, kamon, kamon.

Bu turdagи takror g‘azallar mumtoz adabiyotda unchalik ko‘p emas, faqat sanoqli shoirlar ijodida ko‘rshimiz mumkin, jumladan Ogahiy baytlarida quyidagicha:

Jonum olur ey pari, holimga boq,

Ishtyoqu ishtyoqu ishtyoq.

To mani furqatda qoyding nolishim,

Al firoqu al firoqu al firoq.

Aylamishsan qatlima agyor ila

Ittifoqu ittifoqu ittifoq.²

Xulosa qilib aytganda shoir merosidagi janriy rang-baranglikni ko‘rsatuvchi faktlarning bir qismi musaddas va muxammaslarda ko‘zga tashlansa. Asosiy o‘ziga xosliklarni, she’riy san’atlarning mutanosib joylashuvi, ularning qo‘llashdagi izchilliklarni shoir g‘azallarida ko‘rish mumkin. Ular miqdor va miqyos jihatdan nisbatan cheklangan bo‘lsa ham, muallifning badiiy tafakkuri kengligi, janrlar xususidagi bilim va malakasi yuksakligidan darak beradi.

¹ Muhammadsharif Haqiriy. Devoni Haqiriy. O‘z RFA Sh I. Inv 7096 38-bet.

² Muhammadsharif Haqiriy. Devoni Haqiriy. O‘z RFA Sh I. Inv 7096 46-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammadsharif Haqiriy. Devoni Haqiriy. O‘z RFA Sh I. Inv 7096
2. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: ЎзР ФА нашиёти, 1961
3. “Tafsiri hilol” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr 2017-y.
4. www.qadriyat.uz
5. Husnu xulq fazilati. www.ziyouz.com kutubxonasi